

## MOYCHECHAK – MATRIGARIA BIOLOGIYASI VA DORIVORLIGI

*Umurzakova Farangiz Baxtiyarovna*  
*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

Moychechak–Matrigaria – Murakkabguldoshlar oilasiga mansub bo'lgan, bir yillik o'tsimon o'simlik.

Moychechak - dorivor o'simlik bo'lib, 50 ga yaqin turni o'z ichiga oladi. Dorivor moychechak dunyoning ko'pgina mamlakatlariga keng tarqalgan. Bu o'simlik O'rta Osiyo mamlakatlarida ham madaniylashtirilgan. Xususan O'zbekiston hududining Toshkent, Namangan viloyatlarida moychechakning *Matrigaria Rekutito* yani *Chittigul* ekiladi. Shofirkon tumanining Zarchabek qishlog'ida olib borgan tadqiqotlar natijasida moychechakning yovvoyi turlari borligi aniqlandi.

Juda xushbo'y hidi bo'ladigan, bir yillik o'tsimon o'simlikning bo'yi 40 sm dan 55 sm gacha boradi. Ildizi – ingichka ildiz tizimidan iborat bo'lib, och qo'ng'ir tusda bo'ladi. Poyalari yakka yakka bo'lib, to'g'ri o'sadi, aksariyat vakillari juda shoxlanib ketadi, ichi esa kovak bo'ladi. Barglari navbatma- navbat joylashgan, ikki karra patsimon qirqilgan. Poyalari va shoxlarining uchidan uzun bandlari bo'ladigan gullari chiqadi. Gullari–oq, sariq xushbo'y hidli bo'lib, may oyidan boshlab kuzgacha gullaydi.

Moychechak gullari efir moylar hisobiga yallig'lanishga qarshi, antiseptik, spazmolotik va terlashni to'xtatuvchi modda sifatida tavsiya qilinadi. Ilmiy tibbiyotda yaralarni tuzatish uchun, teridagi infeksiyalarga qarshi, bivosilda va og'iz bo'shlig'i kasalliklarida qo'llaniladi. Gullarida 0,8 foizgacha ko'k rangli efir moyi bor, efir moyi tarkibiga esa xamazulen, terpen, sekviterpen, spirtlar, kadinen, shuningdek kaprilat, nonilat va izovaliriapat kislotalar kiradi.

Efir moyi tarkibidagi Xamazulin moddasi tinchlantiruvchi xossaga hamda ichaklarning yopishib qolishi, allergiyaga va yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega. Apigenin, apin va gerniarin moddalari ham ichaklarning yopishib qolishiga qarshi ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega.

Gullaridan efir moyidan tashqari yana kvertsimetrim, proxamazulen, laktonlar, umbelliferon, gerniarin, dioksikumarin, triakantan, nikotinet kislota, xolin, fntosterin, salitsilat kislota, yor kislotalari glitse ridlari, askarbinat kislota, karotin, shilimshiq moddalar va yelim ajratib olinadi.

Dorivorlik xususiyatlari: Shifobaxsh Moychechak o'simligi teri va uyqu holatini me'yorlashtirish xususiyatiga ega, bundan tashqari, asablarni tinchlantiruvchi, tomoq og'rig'ini davolovchi, me'da va buyraklar uchun quvvat bo'luvchi dorivor o'simlik hamdir.

Asab tizimini tinchlantirishda moychechak, lavanda va melissaning gullaridan tayyorlangan damlama foyda beradi. Buning uchun bu o'simliklarning har biridan 10 grammdan olib, so'ngra ustiga 200 ml qaynoq suv solib qo'yiladi. Bu damlamani 15 daqiqadan so'ng iste'mol qilinsa asablaringiz dam olganini va tinchlanganini his qilasiz. Asablarini tinchlantiruvchi bu damlamani kattalar ham, bolalar ham iste'mol qilishlari mumkin.



Tomoq og'rig'ida va shamollashning oldini olishda, hamda ularni bartaraf etishda moychechak gulining damlamasidan tomoqni chayish samarali ta'sir qiladi. Damlama tayyorlashda moychechakning quritilgan gullaridan 4 osh qoshiqda olib, yarim litr suvga 45 daqiqa davomida saqlab qo'yiladi. So'ngra uni suzib olib, og'iz sohasini shu damlama bilan kuniga 4-5 mahal g'ar-g'ara qilinadi.

Moychechak – xalq tabobatida bavoil, o't pufagida tosh paydo bo'lishi, ayollar jinsiy a'zolari kasalliklari, homiladorlikda taksikoz, oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yarasi, yarali kolit va boshqa kasaliklarni davolasbda ham qo'llaniladi.

Moychechak dorivor o'simlik bo'lsa ham iste'mol qilinishi mumkin bo'lmagan holatlar ham mavjud. Bu o'simlik damlamalari ba'zi odamlarda allergiya chiqarish xususiyatiga ega. Agar oshqozon buzilishi, yuz va tanaga toshma toshishi kabi holatlar kuzatilsa bu holatda moychechak damlamasini ichishni to'xtatish va shifokor bilan maslahatlashish lozim!

Bundan tashqari moychechakli choyni tinchlantiruvchi va siydik haydovchi dorilar bilan qabul qilish tavsiya etilmaydi. Chunki moychechak ham tinchlantiruvchi va buyraklarning ishini faollashtiruvchi xususiyatiga ega. Bu ikki modda birgalikda foydalanilsa moychechakli choy uning faolyatini oshirib yuborishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xolmatov X.X., Axmedov O'.A. Farmakognoziya. Toshkent, 2006.
2. Ahmedov O', Ergashev A.A. Abzalov, Yulchiyeva M., Mustafakulov D. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi. "Tashakkur bo'stoni" nashriyoti. Toshkent, 2018.
3. Qadirov Sh.Y., Sabirov R.S., Abdurahimov U.K. Xorazm vohasi sharoitida Dorivor moychechak yetishtirish agrotexnologiyasi. Xiva, 2015.